

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

Asqarova Manzura,
Namangan Davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada matnda ifodalangan axborotni topish, badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qish darajasini baholash, adabiy o'qish tajribasini egallash, ma'lumotlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanishning metodik asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: metodologiya, kontekst, taqqoslash, interpretatsiya, intellektual, o'zlashtirish, savodxonlik, kompetensiya, ta'lim.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ПРОГРАММ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аскарова Манзура,
исследователь Наманганского государственного университета

Аннотация: В данной статье освещаются методические основы поиска информации, выраженной в тексте, оценки уровня чтения художественных и научно-популярных текстов, приобретения опыта литературного чтения, усвоения и использования информации.

Ключевые слова: методология, контекст, сравнение, интерпретация, интеллектуальный, мастерство, грамотность, компетентность, образование.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE USE OF INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS IN PRIMARY EDUCATION

Asqarova Manzura,
researcher of Namangan State University

Abstract: This article highlights the methodological foundations of searching for information expressed in the text, assessing the level of reading fiction and popular science texts, gaining experience in literary reading, assimilation and use of information.

Keywords: methodology, context, comparison, interpretation, intellectual, mastery, literacy, competence, education.

Kirish. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predm etlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Boshlang'ich ta'lim tizimida mantiqiy o'qish (matnni to'g'ri, tushunib, tez (m e'yorida) o'qish) va adabiy o'qish mukammal o'zlashtirilganidan so'ng ifodali o'qishga o'tiladi. U yod olingan she'riy asarlarni ifodali o'qishni ham o'z ichiga oladi. Ifodali o'qishning muvaffaqiyati o'quvchilarning asar mazmuni, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo'lishi bilan bog'liq. O'qish malakalarini egallash maktabda o'qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrok etish, talaffuz qilish va matn mazmunini tushunish o'rtasida puxta sintez yo'q bo'lgani uchun ular o'qishda xatoga yo'l qo'yadilar. Bu esa matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi.

Agar bolaning o'qish qobiliyati maktab o'quv dasturida talab qilinganidek tez shakllanmasa nima qilish kerak? Mahoratni avtomatlashtirish esa o'z-o'zidan bo'lmaydi. Bu murakkab jarayon. Odatda, o'quvchilar o'qish va matnni tushunmaslik 1 yildan 3 yilgacha davom etishi mumkin. Bunday holatlarda bolada o'qish ko'nikmalarini takomillashganlik darajasini aniqlash va maxsus mashqlar bilan mashg'ulotlarni tashkil qilish lozim.

O'quvchilarni matn bilan ishlashga o'rgatishda to'sqinlik qiladigan ko'plab sabablar mavjud. Ularning orasida asosiy sabablar quyidagilar:

- faollikning tabiiy darajasi;
- regressiya oldindan sezishning etishmasligi;
- artikulyatsiya;

- e'tibor va xotira darajasi. O'quvchilarni o'qishi uchun, o'qishdan oldin ularga yangi matnga kiritilgan murakkab tushunchalar yoki jumalardan iborat maxsus mashqlarni taklif qilish mumkin. Biz ushbu mashqlarni jamoaviy ravishda bajaramiz, ya'ni ular hamma narsani bir vaqtning o'zida o'qiydilar (har biri o'z tezligida), ammo ular diqqat bilan o'qiladi. Bu erda muhim narsa

mashg'ulotlarning davomiyligi emas, balki ularning chastotasi. O'qish yaxshilanganida xatolar soni kamayadi. Intonatsiya matnning hissiy va semantik tomonlarini, muallifning holatini, kayfiyatini (qayg'u, xavotir, quvonch), uning tasvirlanganga (istehzo, hurmat, mag'rurlik, muloyimlik va boshqalar) munosabatini ifoda etadi. O'quv yilida biz o'quvchilarni o'qish va matni tushunishini rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarni tanlab oldik:

- o'qish tezligi;
- kitobxonligi;
- matnni to'g'ri taxlil qila olish darajasi;
- matnni o'qish va tushunish orqali qanday ma'lumot olganligi.

Natijada o'qish, matnni tushunish ko'nikmalarini aniqlashga muvaffaq bo'lish va baholash imkonini beradi. Bu esa o'qish sifatini takomillashtirishdagi ishning samaradorligini baholash imkoniyatini beradi. Muammoni hal qilishda ta'lim natijalarini baholashning eng ilg'or usullarini qo'llashda PIRLS tajribasi joriy qilish maqsadga muvofiq. Xalqaro PIRLS tajribasiga murojaat qilishning sabablari nimalar bilan izohlanadi? Bu borada aynan qanday nostandart echimga kelish kerakligi to'g'risida muhim ma'lumotlarni to'plab kelmoqda. E'tirof etilayotgan echimlar oddiy bir sinf doirasidan to mamlakat darajasigacha bo'lgan ko'lamni qamrab olishi hamda bu echimlar o'sib kelayotgan yosh avlod o'qish savodxonligiga taqdiriga o'zining katta ta'sirini o'tkazishi mumkin. Nima uchun ta'lim tizimi samaradorligi markaziy ko'rsatkichi o'qish savodxonligi deb e'tirof etiladi? Chunki aynan matnlarni o'qish orqali orttiriladigan axborotlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish ko'nikmalari har bir inson taqdiri va mamlakat ravnaqiga o'z ta'sirini ko'rsatadi:

-yuqori o'qish savodxonligiga ega bo'lgan o'n besh yoshli bola katta ehtimol bilan o'qishni tamomlaydi va ta'limning keyingi bosqichini muvaffaqiyatli davom ettira oladi;

-o'qish savodxonligi darajasi mamlakat iqtisodi ravnaqini ta'minlashda boshqa har qanday ta'lim natijalariga nisbatan ustuvorlikka ega. Nega aynan 4-sinfni bitirayotgan o'quvchi bolalarining o'qish savodxonligi? Sababi, aynan shu yoshda rus olimi Leontevning e'tiroficha, asta-sekinlik bilan o'qish ta'limidan ta'lim olish uchun o'qish bosqichiga o'tiladi. PIRLS testlari predmeti keng tushunchani ifodalaydi. O'quvchi ko'plab matnlarga murojaat qilish asosida o'z xususiy tushunchalarini loyihalashtiradi. Ular ta'lim olish, maktab ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish, kitobdan zavq olish uchun o'qiydilar, deb ta'kidlaydi. Mazkur e'tirof mohiyatan yozma nutqdan foydalanish hamda matnlardan foydalanish asosida o'z xususiy his-tuyg'ularini yozma shaklda ifodalash ko'nikmalarini anglatadi. Biroq, PIRLS dastur sifatida o'quvchilarning matnni anglash ko'nikmalarini aniqlash imkonini beradi. PIRLS testlari nazariy doirasi jihatdan to'rt xil asosiy o'qish ko'nikmalarini aniqlash imkonini beradi:

- matnda ochiq-oydin ifodalangan axborotni topish;
- uning asosida oddiy aqliy xulosalar chiqarish;
- matndagi g'oya va axborotlarni sharhlash, integratsiyalash;
- matn shakl va mazmunini baholash.

Mazkur to'rt o'qish ko'nikmalari har bir matn yuzasidan test savollarini tuzishda asos vazifasini o'taydi. PIRLS ochiq matnlaridan foydalangan holda sanab o'tilgan o'qish ko'nikmalarining har biriga to'xtalib o'tamiz. Test materiallari va natijalarini tahlil qilishda ifodalalanayotgan o'qish ko'nikmalari orasidagi chegaraning nisbiy ekanligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Matnni o'qishda ular yaxlit holda amalga oshiriladi, o'qish bilan bog'liq har qanday vazifani amalga oshirish o'quvchidan mavjud barcha ko'nikmalari safarbarligini taqozo qiladi. Faqat yuzaki qaraganda, matnda ochiq-oydin ifodalangan axborotni topishmatndagi g'oya va axborotlarni sharhlash, integratsiyalashdan osondek tuyuladi. Bundan tashqari, murakkablik darajasi hamda muayyan ko'nikmalarga tushadigan yuklamalarini o'zaro tenglashtirib bo'lmaydigan turli matnlar o'quvchiga nisbatan har xil talablarni qo'yadi. Biz ko'rib chiqayotgan PIRLS testlari 12 ta matn (shulardan 6tasi badiiy va 6tasi axborot shaklida) hamda 175 ta savolni qamrab olgan. Matn va savollarni ishlab chiqishda PIRLSga a'zo davlatlarning etakchi mutaxassislaridan iborat ekspert kengashi har bir matn yuzasidan beriladigan savollarga javob berishda o'quvchilarning aynan qaysi bir o'qish ko'nikmalari talab qilinishi bilan bog'liq murakkab vazifalarni hal qilishlariga to'g'ri keladi. Kitobxon - o'quvchilar har bir matn mazmunida mavjud katta miqdordagi aralash xabarlariga nisbatan diqqatlarini taqsimlashda yaqqol bir-birlaridan ajralib turadilar. O'quvchi uchun matndagi hamma xabarlar ham bir xil ahamiyatga ega bo'lavermaydi. Bunda ayrim o'quvchilar diqqatlarini matnning umumiy mazmunidan ularning ehtimollarini tasdiqlaydigan xabarlariga qaratsalar, boshqalari o'zlarining ilk taassurotlariga zid bo'lgan xabarlariga e'tiborlarini qaratishadi. Aksariyat hollarda o'quvchilar urg'uni o'qilayotgan matndan ko'zda tutilgan savollarga javob beradigan xabarlariga qaratishadi va boshqa talab qilinayotgan savolga javob beradigan xabarni e'tibordan chetda qoldirishadi. Ayrim o'quvchilar matn mazmuni,

ayrim xabarlarini anglaganliklarini o'zlarida shakllangan va takomillashib borayotgan dunyoqarash asosida qaytadan tekshirib chiqadilar, boshqalari esa bu ishni amalga oshirmaydi. Ba'zi o'quvchilar matnni anglash bilan bog'liq xususiy fikrlarini shakllantirishda alohida olingan so'z va gaplarning ma'nolaridan foydalanishadi, boshqalar esa nisbatan keng bloklarga tayanib ish ko'radilar. Matndan axborotlarni izlashga qaratilgan barcha strategiyalar o'zining kuchli va o'z taraffariga ega, biroq har qanday strategiya matnga murojaat qilishdan muddaoni ko'zlagan savolga javob topishda konkret axborotni tez va aniq, avtomat tarzida anglashni ta'minlashi zarur. Bu axborot esa matnning aynan bir joyida yoki uning turli qismlaridan o'rin olgan bo'lishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Mamlakatimiz ta'lim jarayoniga Xalqaro PIRLS testlarini joriy qilish bitiruvchi sinf o'quvchilarining tafakkur faoliyatini rivojlantirish, mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, nostandart qarorlar qabul qilish va kreativ fikrlashlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, masal ustida ishlashda hayvonlarining ichki kechinmalarini taxlil qilish mumkin. Masal – nasrda yoki she'rda yozilgan kichik bir asar bo'lib, odamlarning ayyorlik, yolg'on, xushomad, ochko'zlik, ahmoqlik yomonliklarini va kamchiliklarini qoralaydi.

Odatda, ertaklarda hayvonlar mavjud bo'lib, o'quvchilar ularni osongina taniydilar. Masal axloq bilan boshlanadi va tugaydi. Bu esa ertakning ma'nosini ochib beradigan xulosadir. Misol uchun 4-sinf o'qish darsligida berilgan A.Abdurazzoqning "Chumchuq bilan chumoli" masalini tahlil qilamiz. Matnda ifodalangan axborotni topishga qaratilgan savollarning o'ziga xos jihatlari ko'rsatib beramiz. Matnning maqsadi: o'quvchiga hayvonlarning hayot tarzi, sezgi a'zolarining hayratlanarli jihatlari to'g'risida ma'lumot berish. Savol: chumolining qanday xususiyatlarga egaligi taxlil qilingan. 3ta misol keltiring. Mazkur savolga to'g'ri javob berish uchun o'quvchidan muayyan ishlarni amalga oshirish va bunda javob to'g'ri deb e'tirof etilishi uchun shartni tushunish darajasi(ko'nikmasi)ga ega bo'lishi talab etiladi.

1. Chumolining o'ziga xos xususiyatlari, mehnatkashligi bilan bog'liq ma'lumotlar matnning turli o'rinlarida eslatilganligini inobatga olgan holda o'quvchi butun matnga tez ko'z yugurtirib oladi. Matnda bu kabi eslatmalar bir talay. Biroq birinchi chumchuqning qanday jonivor ekanligi to'g'risidagi 3ta misolni keltirish uchun ma'lumotlar etarli.

2. O'quvchi mazkur holatda printsiplal jihatdan mavhum va chalkash javob o'tmasligini bilishi kerak. Matnda chumoli chumchuqqa "don kerak bo'lsa, izlab top. Agar mening qanotim bo'lganida ming chaqirim joyga ham erinmay borib kelar edim.

– Qanot menga don izlash uchun berilgan emas, – debdi Chumchuq. Bo'lmasa xirmonga borib to'yib kelardim. Lekin u erda Mushuk bor. Qo'rqaman, meni eb qo'yadi" – deya aytib o'tgan. Biroq o'quvchilar qanotlar bo'lmasa ham mehnat orqali maqsadga erishish mumkingini tushunishlari kerak bo'ladi.

O'quvchi nafaqat savolga javob izlashda matn mazmunini diqqat bilan o'qish, balki savolning mohiyatiga e'tibor qaratishga ham odatlanishlari kerak. Agar u muhim detallar ahamiyat berishga odatlanmagan bo'lsa, faqat uchta misol keltirish kerakligini "sezmay qolishi" mumkin.

PISA tadqiqotining tabiiy fanlar yo'nalishi PISA tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri tabiiy fanlar savodxonligi.

Tabiiy-ilmiy savodxonlik - bu shaxsning tabiiy fanlarga bog'liq masalalar bo'yicha faol fuqorolik pozitsiyasiga ega bo'lishi va tabiiy g'oyalarga qiziqishga tayyorgarlik qobiliyatidir.

Tabiiy-ilmiy savodli inson tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolar muhokamasida ishtirok etishga intiladi va buning uchun quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi talab etiladi, hodisalarni ilmiy tushuntiradi, baholaydi va ilmiy tadqiqotlarni rejalashtiradi, ma'lumot va dalillarni ilmiy jihatdan sharhlaydi.

Tabiiy - ilmiy savodxonlikning asosiy ko'nikmalari Real holat, muammoni - 1.Tushuntirish 2.O'rganish 3.Hulosa qilish.

PISA topshiriqlari bloki muammo bo'lgan real holatlar ko'rinishida bo'ladi. Bunda har bir savol, topshiriq quyidagi kategoriyalar bo'yicha klassifikatsiyalanadi:

- kompetensiya;
- tabiiy-ilmiy bilimlar tipi;
- kontekst;
- kognitiv daraja kompetensiyalar;
- hodisalarni ilmiy tushuntira olish;
- tabiiy- ilmiy tadqiqotlar metodlarini qo'llay olish;
- ilmiy dalillar asosida hulosa qila olish;

- salomatlik - tabiiy resurslar - atrof muhit;
- havf va xaratlar - ilm – fan va texnologiyaning uzviyligi;
- Kontekstlar - savol yoki topshiriqqa tegishli muammoli holatning tematik bo‘limi.

PISA tadqiqotida quyidagi kontekstlar mavjud.

1. Mazmunli bilim:

- a) Tabiiy sistemalar
- b) Tirik sistemalar
- c) Yer va koinot ilmi

2. Imperativ bilim (jarayonga oid bilimlar) – ilmiy bilim olishda turli metodlarni qo‘llay bilish.

Mazmunli bilim bo‘limida - “Tabiiy sistemalar” – bu asosan fizika va kimyo, “Tirik sistemalar”- biologiya, “Er va koinot ilmi” – geografiya, geologiya, astronomiya fani materiallari mavjud. Lekin, PISA dasturi topshiriqlari fanlararo xarakterga ega.

PISA Odatda, standart, shakllantirilgan holat taklif etiladi. Odatda, yangi, noma’lum, real holat taklif etiladi. Ma’lumot hajmi katta emas, odatiy “berilgan” formatida. Ma’lumot hajmi kengroq, ko‘pincha ilmiy matnni eslatadi. Topshiriq 1 yoki 2ta savoldan iborat. Topshiriqlar tematik bloklar ko‘rinishida bo‘lib, 3tadan 5tagacha topshiriqdan iborat. Topshiriqlarning 5% tabiiy-ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanishni talab etadi. Topshiriqlarning 21% tabiiy-ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanishni talab etadi. Grafik tahlili, jadvallarga asoslangan topshiriqlar juda kam. Ko‘p topshiriqlar grafik, jadval, diagrammalar shaklida berilgan. Ekologik muammolarga tegishli savol va topshiriqlar kam. Ekologik muammolarga tegishli savol va topshiriqlar ko‘p bo‘ladi.

Xulosa. Demak, xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, turli xil xarakterdagi testlarda mavjud bo‘lgan ma’lumotni taqqoslash va unda dalil, xulosalarni topish, muallifning yoki matnning asosiy g‘oyasi to‘g‘risida xulosa chiqarishga olib keladi. Matnda mavjud bo‘lgan ma’lumotni boshqa manbalardan olingan ma’lumotlar bilan bog‘lash, ularning dunyo haqidagi g‘oyalariga asoslanib, matnda bayon etilgan fikrlarni baholash, ularning fikrlarini himoya qilish uchun dalillarni topishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi veb-sayti: www.tdi.uz.

Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash U.N.Tashkenbayevning umumiy tahriri ostida. –T.: Sarq, 2019. – b. 3.

Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti: www.markaz.tdi.uz.